

UMAY KULTI VA UNING TASVIRLARI HAMDA U BILAN BOG'LIQ ISHONCHNING KUNIMIZDAGI AKSLARI

Dilbar Haydarova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8361991>

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda biz turkiy xalqlarning diniy ishonchlarida tasavvur etilgan ilohalar haqida ma'lumot berdik. Xususan, iloha Umay Onaning ta'rifi hamda bugunga qadar turkiy xalqlarning kundalik hayotida Umay ona bilan bog'liq udumlarga to'xtaldik.

Kalit so'zlar: Iloha Umay Ona, hermafrodit, arxaik xudo, yunon miflari, Oq Ona, Kishtey Sulton.

Insoniyatning tafakkur tarzida miflar alohida ahamiyat kasb etadi. Miflar orqali ilk insonlarning olam haqidagi tasavvurlari, ilohiy ishonch tushunchalari va turmush tarzi kabi ko'plab qimmatli ma'lumotga egamiz. Shu bois ham mifologiyaning sehrli olami haqida bugungi kunimizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mifologiyaning dunyo bo'yicha o'rganilishi ham anchayin ommabop va zamonaviy ilm-fan uchun ahamiyatlidir.

Qadim xalqlar tafakkur tarzidan hikoya qiluvchi anchayin ommabop miflar mavjud: qadimgi shumerliklar, misirliklar va yunon-rim afsonalari ko'plarga tanish. Ayrimlar kino-filmlar orqali ular haqida ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa, boshqalar ommabop tarzda yaratilgan asarlar orqali yaxshi biladi. Shunday asarlardan biri Nikolay Kunning "Xudolar va qahramonlar" nomli kitobidir. Unda yunonlarning asosiy iloh va ilohalariga ta'rif berilgan va asar qiziqarli hikoya uslubida yozilgan. Bundan tashqari ham afsonalar asosida bir qancha asarlar yaratilgan, biroq u kabi asarlar hamda ilmiy ishlarda negadir erkak ilohlar va qahramonlar bosh o'ringa chiqib qolgan. Ulardan kam qudrat va kuchga sohib bo'lmaganligi tushunilgan ilohalar esa ayrim holatlarda soyada qolib ketgan. Mana shu kamchilikni to'g'irlash uchun so'nggi vaqtlarda ayol ilohalar haqida qator izlanishlar olib borildi, ularga asoslanib bir qancha asarlar yozildi. Misol qilib Jenny Williamson va Genn McMenemy hammuallifligidagi "Women of Myth"¹ asarini olishimiz mumkin. Kitobda qadimgi misirliklardan tortib yunon ilohalarigacha, Janubiy Amerikadan to' Uzoq Sharqning mifologik hikoyalari keltiriladi. Asteklar, eskimolarning ilohalari haqida so'z yuritiluvchi asarda bir dona ham turkiy ilohalar yoki afsonaviy qahramon ayollar haqida ma'lumot uchramaydi. Buning sabablaridan biri esa, bizningcha, boy tariximiz, mifologik qahramonlarimizni yetarli darajada namoyon qila olmaganimizdir. Shoh va olim Abulg'oz Bahodirxon keltirib o'tgan iborani yana bir eslab o'tmoqchimiz: "O'ksuz o'z kindigini o'zi kesar". Turkiy xalqlar mifologiyasida bir qancha ilohalar, jodugarlar va afsonaviy ayol qahramonlar mavjud. Iloha Umay Ona, Iloha Kishtey Sulton, Iloha Erka Sulton, Oq Ona, Sariq qiz va Kubey Xatun shular jumlasidandir. Biz ushbu maqolamizda qadimgi turkiy xalqlarning asosiy ayol ilohasi sifatida tasvirlanuvchi Iloha Umay Ona haqida bir qancha ma'lumot taqdim etmoqchimiz.

Iloha Umay Ona turkiy xalqlarning asosiy tangrilaridan biri hisoblangan va uning o'ziga xos xususiyati u qadimgi turkiylar tushunchasida hermafrodit² xudodir. Chikago universiteti professori Mircha Eliadening fikricha, arxaik xudolarning deyarli hammasi hermafroditdir. Iloha Umay ham ikki jinsli sifatida³ tasavvur etilgan, biroq uning eng mashhur qiyofasi ayollik

¹ Bu asar "Dunyo mifologiyasida ayollar: ilohalar, qahramonlar va jonivorlar" nomi ostida turk tiliga tarjima qilingan.

² Hermafrodit Germes va Afroditaning farzandi, ikki jinsli bola. O'z tanasida ham ayollik, ham erkaklikni tashuvchi xudo.

³ Bu yerda ikki jinsli so'zi ko'proq qiyofasini o'zgartira olish, qiliq almashtirish xususiyatiga nisbatan qo'llanilmoqda.

ramzi bilan tasvirlanadi. Biz ham birinchi navbatda o'zida ayollik xilqatini tashuvchi Iloha Umayni tadqiq etamiz. Umay so'zini ayrim olimlar hind ilohasi Uma May bilan bog'laydi. Uma Mayning ma'nosi May ilohasidir. May so'zi lotinchada "Maius" ma'nosini ifodalaydi va rim ilohasi Mayaning nomi ham bu so'zdan kelib chiqqan. Turkiylarning ilohasi Umayning nomi qaysi so'zdan kelib chiqqani haqida bir qancha talqinlar bor, ammo hanzuz aniq xulosa mavjud emas.

Iloha Umay Ona kumush sochli go'zal ayol sifatida tasavvur etilgan va ko'kraklari bo'liq holatda tasvirlangan. TyanShan qirg'izlarida esa "Umay Onaning ko'ksidan sut keladi" degan ibora mavjud. Umay Ona tasvirlariga boqadigan bo'lsak, boshida uch qirrali tojni ko'ramiz. Bu toj ba'zi manbalarda shox/muguz sifatida ham talqin etilgan. Bu uch qirrali oltin toj Venera yulduzi ham anglatgan. Osmonda yulduzday nur sochuvchi iloha sifatida ham tasavvur qilingan.

Iloha Umay Onaning Humo qushi bilan aloqasi bor deb hisoblashgan ya'ni Umay Ona samodan yer yuziga tushmoqchi bo'lsa, Humo qushi qiyofasiga kiradi deb ishonishgan. Shu sababdan Oltoy turklari Umay Onaga "Qush ona" deb murojaat qilishgan. Ayrim turkiy xalqlar Umay Onani oqqush, g'oz qiyofasida ham tasavvur qilishgan. Bundan tashqari, Umayning Yerdagi yana bir avatari uch shoxli kiyikdir.

Iloha Umay Ona homilador ayollarning va yosh bolalarning qo'ruvchi ilohasi hisoblangan. Mahmud Koshg'ariyda "Umayga topinsa o'g'il bo'lur" degan ibora uchraydi. Qadimgi turkiy xalqlar homilaga jon beruvchi va uning jinsini belgilovchi iloha sifatida Umayga ishonishgan. Tug'ruq jarayonida homila bilan birga keluvchi yo'ldoshni ham Umay deb nomlashgan. Shu bilan birga Umay Ona chaqaloqlar bilan gaplashuvchi ilohadir. Chaqaloq kulsa yoki yoqimli qiliqlar qilsa, Umay Ona bilan gaplashyapti yoki Umay Ona chaqaloqni kuldiryapti deb hisoblashgan. Qirg'izlarda biror muhim ishga kirishishdan oldin yoki tug'ruq jarayonida doylar "Bu mening qo'lim emas, Umay Onaning qo'li" deb ish boshlashgan. Bugungi kunimizda ham saqlanib qolgan va ko'pincha folbinlar, kinachilar leksikonida qo'llanuvchi "Qo'l bermoq" iborasining ildizi Umay Onaga borib taqaladi.

Umay turkiy xalqlarning eng mashhur xudolaridan biri sifatida talqin etilgan va uning bir qancha arxitiplari borligiga ishonishgan. Yuqorida aytganimizday, Umay ona yana bir qiyofasi erkaklik bilan bog'liq tarzda tasavvur qilingan. Jang, zafar xudosi sifatida jangchi va sarkardalar urushlar oldidan Umaydan najot so'rashgan hamda unga Umay Beg deya murojaat etishgan. Bir qancha arxeologik manbalarda Umay Begning jangchilar birgalikdan o'tirgani tasvirlangan. Alplar jangga kirishdan oldin zafar tilab Umay Begga duo qilishgan. Bundan tashqari Umay bilan bog'liq bir qancha ramzlar ham mavjud. Ulardan eng mashhurlari: o'choq, tuproq, daraxt, uch qirrali toj yoki shox, qadah, kiyik va sutdir.

Yuqorida qadimgi turklar chaqaloqni himoyalovchi qobiq, yo'ldoshni Umay deb nomlashganini aytib o'tdik, Iloha Umayning ramzlaridan biri esa daraxtdir. Bu daraxt ko'plab xalqlar mif va afsonalarida uchrovchi hayot daraxtiga ishora etiladi. Mana shu yerda qiziq bir holatni ko'rish mumkin, o'zbeklar orasida bugungi kungacha saqlangan bir odat bor. Ko'plab o'zbek xonadonlarida chaqaloq tug'ilgach, bola bilan kelgan yo'ldoshni mevali daraxt ostiga

ko'mishadi.⁴ Qiziqarli tomoni, asrlar o'tib, diniy qarashlar o'zgarsa-da madaniy kodlar xalq bilan yashab kelmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, turkiy miflardagi ayollar obrazi va ular bilan bog'liq ishonch hamda odatlar jiddiy tadqiqotlarni kutyapti. Ayollar masalasining bugungi holati, bugungi muammolarimiz yechimi qadim tarixga, iptidoiy diniy ishonchlarga borib taqalishi ham mumkin. Va eng muhimi, erkak ilohlardan kam bo'lmagan ayol ilohalarni asosiy sahnaga olib chiqib, ularni zamonaviy insonga tanitmog'imiz lozim. Turkiy miflarning dunyoga aytmoqchi bo'lgan "so'zlari" hali ko'p.

References:

1. Abulg'oziy. Shajarayi turk. – Cho'lpon, 1992.
2. Claude Levi-Strauss. Myth and meaning. – Minator, 2023.
3. Fuzuli Bayat. Kadim turklerin mitologik hikayeleri. – O'tuken, 2017.
4. Jenny Williamson va Genn McMenemy. Women of Myth. – 2023.
5. Jon H. Bechtel. Mitoloji so'zlug'u. – Istanbul. Maya, 2023.
6. Klara Gipson. Simvollar qanday o'qiladi? – Istanbul. Alfa, 2023.
7. Nuray Bilgili. Turk mitolojisinde tanrijalar ve jadilar. – Istanbul. Hermes, 2022.

⁴ Hozirgi kunda yo'ldoshni tug'ruqxonada qoldirish va maxsus usullar bilan yo'ldoshni yo'q qilish amaliyoti qo'llaniladi. Ammo ayrim hollarda oila a'zolarining iltimosiga ko'ra yo'ldosh ularga beriladi va odatga ko'ra mevali daraxt ostiga ko'miladi.